



O‘zbekiston Taraqqiyotning Yangi Bosqichi Va Jamiyatimiz Ma’naviy Hayotining G‘Oyaviy Asoslari

Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich

Milliy g’oya va falsafa kafedrasi dotsenti

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat hayotida, xususan, ma’naviy-mafkuraviy sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar bashariyat e’tiborini tortmoqda. Ayni paytga kelib Sharq xalqlari tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi va milliy qadriyatlarimizni chuqur va har tomonlama o‘rganish, uni yurtimizda va xorijda keng targ‘ib qilishga e’tibor kuchaygani ayni haqiqatdir.

Asrlar davomida xalqimiz yaratgan madaniyati tarixiy merosi o‘rganish va o‘zlashtirishning O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish tarixida jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotidagi roli va ahamiyati haqida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Bugungi notinch va tahlikali zamonda taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan, butun insoniyatning ma’naviy boyligi bo‘lgan bebaho merosining o‘rin va ahamiyati beqiyosdir”¹, – deb aytgan fikrlari, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari direktiv xarakteriga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida “tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llash” [1] muhim vazifa sifatida belgilanganligini qayd etish joiz.

O‘zbekiston davlatining Istiqlol yillarda bosib o‘tgan shonli yo‘liga nazar tashlab, o‘z kuch va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchning yanada ortishi, Mamlakatni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasiga muvofiq barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlar bu borada hal qiluvchi omil bo‘layotgani, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”, degan da’vatkor g’oya hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgani, aynan shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta’minalash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlar qo‘yilayotgani Prezident nutqida aytib o‘tildi. Shuningdek, O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani, bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emasligi, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emasligini yurtboshimiz qayd etib, xalqimizni bugungi murakkab davrda kelajakka ishonch bilan o‘z oldiga qo‘yan maqsad sari dadillik ila qadam tashlashga undadilar. Jamiyatning ma’naviy hayotini tahlil qilish hozirgi paytda falsafaning eng muhim muammolaridan biridir.

Zero, ma’naviy barkamollikka erishish, ma’rifatli inson sifatida kamol topish orzusi Sharq mutafakkirlari ta’limotida azaldan ustuvor g’oya bo‘lib kelgan. Allomalar asrlar davomida ma’naviy barkamollikka erishishning afzalliklari, jamiyat ravnaqida ma’naviy barkamol insonning o‘rnini to‘g‘risida ilg‘or falsafiy fikrlarni ilgari surib kelganlar, ushbu yo‘nalishda falsafiy ta’limotlar yaratganlar.

O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyoti mafkuraviy jarayonlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ba’zan mafkuraviy jarayonlar barqaror taraqqiyotni ta’minlab bergan bo‘lsa, ba’zi xollarda g’oya va mafkuralar taraqqiyotni boshi berk ko‘chaga yetaklagan, turg‘unlashtirgan yoki chuqur inqirozlarga sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasining ma’lum strukturasini belgilash,

¹ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. З том. – Тошкент : Ўзбекистон НМИУ, 2019. 209 б.



ushbu jarayonda milliy muayyan mafkuralar bilan bog‘langan, aloqadorlikdagi qoida va qonuniyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

1. O‘zbekiston taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlar genezisi tarixini aniqlash orqali dastlabki bilinga ega bo‘lish;
2. O‘zbekiston taraqqiyotida g‘oya va mafkuralar transformatsiyalashuvi davrlarini aniqlash va shunga tayangan holda, ularni yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yangi g‘oyalarga tayanish lozim.

Bugungi kunda yoshlarni boy ma’naviy merosimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ushbu jarayonda yosh avlod ongi va qalbiga yuksak ma’naviy qadriyatlarni singdirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Shu bois ma’naviy qadriyatlarni tiklash, ularni boyitish, takomillashtirish va rivojlantirish barobarida ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirish mamlakatimizda Uchinchi Renessans davrini yaratishga olib kelindi.

“Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarmiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqishimiz lozim. Bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarur. Mana, biz Asosiy qonunimizdagи fundamental prinsiplardan kelib chiqib, Dunyoviy davlat konsepsiyasini ishlab chiqyapmiz”. - ta’kidlaydi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[2]

Davlatimiz rahbari bu kabi muammolarning oldini olish borasida quyidagi mulohazani ilgari surgan edi: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalg qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”. Chunki, korrupsiya davlatni ichidan yemiruvchi hamda milliy xavfsizligimizga ta’sir o‘tkazadigan xatarli tahdid va unga qarshi kurashish barchamizni oldimizdagи vazifadir. Nemis va yapon xalqi urushdan keyingi och-nahorliklarga, muhtojliklarga qaramay, barcha topganlarini èshlar kamolotiga, ularning ta’lim va tarbiyasi uchun sarflagan. Buning ustiga g‘olib davlatlar ko‘rgan zararlarni ham ana shu xalqlar to‘lashi kerak bo‘ldi. Ana shunday og‘ir sharoitda Yaponiyada sièsiy, iqtisodiy inqirozga uchragan mamlakatni tushkunlikdan olib chiqishning birdan-bir yo‘li sifatida xalq milliy ruhiyatini tiklash, ta’lim tizimini yangi asosda yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratildi. «Xalqning qornini to‘ydirish uchun, avvalo uning miyasini to‘ydirish kerak» degan o‘ziga xos shior va g‘oya ilgari surildi. Bu g‘oya «miyasi to‘ygan xalqning qorni o‘z-o‘zidan to‘yadi» degan tamoyil asosida amalga oshirila boshlangan.

Umuman olganda, ma’naviy taraqqiyotni ta’minalashning ijtimoiy manbalariga quyidagilarni kiritish mumkin: oilani, bolalar bog‘chasini, maktabni, kutubxonalarni, muzeylarni, madaniy markazlarni, teatr, kino, OAV, ijtimoiy tashkilotlarni (ijodiy uyushmalar), ishlab chiqarish korxonalarini, davlat organlarini, xalqaro institutlar va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning barchasi turli darajada va turli tomonlardan inson dunèqarashining rivojlanishi va ma’naviy kamolotiga ta’sir ko‘rsatadi.

“Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirishda siz, madaniyat ahlining o‘rningiz va ta’siringiz beqiyosdir.

Sizlar yuksak iste’dod va mahoratingiz, ijtimoiy hayotimizdagи faol ishtirokingiz bilan yangi Uyg‘onish davrini barpo etishga albatta munosib hissa qo‘shasizlar, deb ishonaman.” [2] – deb ta’kidlaydi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytganda jamiyat ma’naviy ehtiyojlar ko‘p jihatdan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq. Shaxsning ma’naviy ehtiyoji ma’naviy qiziqishdan boshlanadi va asta-sekin faoliyatga aylanadi. Bu jarayonda turli baholar, me’yorlar, qoidalar, ideallar shakllanadi. Ular ijtimoiy ahamiyati yuksaklari odamlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va keng tarqala boshlaydi. Natijada, ma’naviy qadriyatlар yuzaga keladi. Ma’naviy qadriyat, o‘z navbatida, yanada yuqori ma’naviy ehtiyojning qaror topishiga asos bo‘ladi.



Kitob o‘qishni rag‘batlantirish, yoshlar o‘rtasida turli konkurs-tanlovlар, intellektual musobaqalar o‘tkazish, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, milliy va umuminsoniy meros haqida yosh avlodni, xalqimizni yetarlicha xabardor etish orqali sog‘lom ma’naviy ehtiyojlarning o‘sishiga barakali ta’sir etish mumkin.

Jamiyat hayotida inson ma’naviy ehtiyojlarining o‘sishiga aks ta’sir etuvchi omillar: milliy mahdudlik, inson huquqlari va erkinliklarining yetarlicha ta’minlanmasligi, so‘z va axborot erkinligining etishmasligi, ishlab chiqarish turlarining, bиринчи galda ma’naviy ishlab ishlab chiqarish turlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, aholi daromadlarining pastligi, milliy qonsolidatsiyaning zaifligi ma’naviy hayotda qoloq, hatto buzg‘unchi g‘oyalarning aholining ma’lum qatlamiga ta’siri ma’naviy ehtiyojlarining qondirilmasligiga olib kelib, jamiyat ma’naviy hayotida turg‘unlikni va salbiy beqarorlikni yuzaga keltirib chiqaradi.

Ta’lim va tarbiya tizimi jamiyatdagi qashshoqlik, muhtojlik, ijtimoiy tengsizlik kabi illatlarga qarshi kurashishda, har xil iqtisodiy-texnologik, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik, ekologik va boshqa muammolarni bartaraf etishda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya dunyoqarashni shakllantirish, insonning turmush tarzini tanlashi va yaxshilanishini kengaytirishga yordam beradi, inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatining turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmiga aylanadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2018 yil 30 noyabr. 07/18/4038/2243-son.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqidan.
3. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 798 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal